

Xushnazarova Nargiza Egamnazarovna

Nizomiy nomidagi O‘zbekiston Milliy pedagogika universiteti

“Ijtimoiy fanlar” kafedrası o‘qituvchisi

E-mail: nargiza.xushnazarova@gmail.com

UDK: 091.122.129.11

OLIIY TA’LIM TRANSFORMATSIYASINING FALSAFIY

ISTIQBOLLARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada zamonaviy oliy ta’lim tizimining transformatsiyasi jarayonlari, uning falsafiy va strategik istiqbollari tahlil qilingan. Transformatsiya jarayonining muvaffaqiyati, subyektlarning o‘zgarishlarga tayyorligi hamda mazkur jarayonning mantiqiy yakuniga yetishi bilan bog‘liq masalalar yoritilgan. Shuningdek, O‘zbekistondagi oliy ta’lim tizimi islohotlari, xususan, “O‘zbekiston 2030” strategiyasi doirasidagi o‘zgarishlar va ularga ta’sir etuvchi obyektiv hamda subyektiv omillar ko‘rib chiqilgan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasi: kelgusi 2026-yilga mo‘ljallangan dastur doirasida yangi loyihalar ishlab chiqilib, oliy ta’lim bitiruvchilari va ish beruvchilar o‘rtasida ko‘prik bo‘lib xizmat qiladigan raqamli ekotizim yaratilishi to‘g‘risida ma’lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: Oliy ta’lim, konsepsiya, transformatsiya, raqamli transformatsiya, avtonomiya, kompetensiya, integrativ ta’lim, barqaror rivojlanish, mentalitet, tizim, dunyoqarash.

Хушназарова Наргиза Эгамназаровна

Преподаватель кафедры «Социальные науки», Национальный педагогический университет Узбекистана имени Низами

E-mail: nargiza.xushnazarova@gmail.com

ФИЛОСОФСКИЕ ПЕРСПЕКТИВЫ ТРАНСФОРМАЦИИ

ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация. В данной статье анализируются процессы трансформации современной системы высшего образования, ее

философские и стратегические перспективы. Рассматриваются вопросы, связанные с успехом процесса трансформации, готовностью субъектов к изменениям и логическим завершением этого процесса. Также анализируются реформы системы высшего образования в Узбекистане, в частности, изменения в рамках стратегии «Узбекистан 2030», и объективные и субъективные факторы, влияющие на них. Обращение Президента Республики Узбекистан Шавката Мирзиёева к Олий Меджлису и народу Узбекистана: представлена информация о разработке новых проектов в рамках программы на предстоящий 2026 год и создании цифровой экосистемы, которая будет служить мостом между выпускниками высших учебных заведений и работодателями.

Ключевые слова: Высшее образование, концепция, трансформация, цифровая трансформация, автономия, компетенция, интегративное образование, устойчивое развитие, менталитет, система, мировоззрение.

Xushnazarova Nargiza Egamnazarovna

Lecturer, Department of Social Sciences,

Nizami National University of Uzbekistan

E-mail: nargiza.xushnazarova@gmail.com

PHILOSOPHICAL PROSPECTS OF HIGHER EDUCATION TRANSFORMATION

Abstract. This article analyzes the processes of transformation of the modern higher education system, its philosophical and strategic prospects. Issues related to the success of the transformation process, the readiness of subjects for change, and the logical conclusion of this process are covered. Also, the reforms of the higher education system in Uzbekistan, in particular, changes within the framework of the "Uzbekistan 2030" strategy, and the objective and subjective factors influencing them are considered. Address of the President of the Republic of Uzbekistan Shavkat Mirziyoyev to the Oliy Majlis and the people of Uzbekistan: information is provided on the development of new projects within the framework of the program for the coming year 2026 and the

creation of a digital ecosystem that will serve as a bridge between higher education graduates and employers.

Keywords: Higher education, concept, transformation, digital transformation, autonomy, competence, integrative education, sustainable development, mentality, system, worldview.

Kirish.

XXI asr – axborot asri sifatida jamiyatning barcha qatlamlarida misli ko‘rilmagan o‘zgarishlar yuz bermoqda. Ayniqsa jamiyatning barcha jabhalarida misli ko‘rilmagan darajada o‘zgarishlar, yangiliklarga boy bo‘lib kelmoqda. Ushbu davrning asosiy harakatlantiruvchi kuchi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va global iqtisodiyotning tezkor rivojlanishi hisoblanadi. Oliy ta‘lim muassasalari mazkur o‘zgarishlarning markazida turib, nafaqat ularga moslashishi, balki jamiyatning intellektual va iqtisodiy taraqqiyotini ta‘minlash uchun o‘zlari ham chuqur transformatsiyadan o‘tishlari zarurligi har qachongidan ko‘ra yanada tezlashib bormoqda.

Oliy ta‘lim transformatsiyasi faqatgina tashkiliy yoki texnik o‘zgarishlar emas, balki ta‘lim sohasi, ta‘lim falsafasi, boshqaruv madaniyati va ilmiy yondashuvlarni qayta ko‘rib chiqishni talab qiluvchi kompleks jarayondir. Bu o‘rinda transformatsiya tizimi oliy ta‘lim tizimiga qay tartibda kirib kelishi va transformatsiyaning o‘zi qachon boshlangani ham juda qiziqarli masala.

Adabiyotlar tahlili.

O‘zbekistonning mustaqillik davrida oliy ta‘lim sohasida amalga oshirilgan islohotlarni birinchi Prezidentimiz I.A.Karimovning “Ilm-fan imkoniyatlaridan to‘laroq foydalanalaylik” sarlavhali maqolasi bilan bog‘lash mumkin [7]. Bu manbada oliy ta‘limning milliy taraqqiyotdagi roli, ilmiy va pedagogik salohiyatni rivojlantirish zaruriyati ta‘kidlanadi. Oliy ta‘lim transformatsiyasining falsafiy istiqbollari o‘rganishda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning “Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqamiz bilan birga quramiz” asari muhim manba sifatida e‘tiborga loyiqdir [5]. Ushbu manbada davlat rahbari oliy ta‘lim tizimini milliy taraqqiyot

va ijtimoiy barqarorlik kontekstida rivojlantirish zarurligini ta'kidlaydi. Transformatsiya uchun shart-sharoit aslida 2016-yilning kuzida O'zbekistonda yuz bergan. Yurtboshimiz ta'kidlaganlaridek: "Islohot – islohot uchun emas, avvalo inson uchun" deb nomlagan tamoyilidan kelib chiqib, ijtimoiy sohadagi islohotlarni xalqimizning hayot darajasi va sifatini yuksaltirish yo'lini davom ettirish[5] maqsad qilib qo'yilgan. Demokratik o'zgarishlar ijtimoiy munosabatlar doirasida boshlangan bo'lib, 2017–2021-yillarga mo'ljallangan "Harakatlar strategiyasi" oliy ta'limni tubdan isloh qilishga zamin yaratib, "O'zbekiston 2030" strategiyasi bilan uzviylikda rivojlanish jarayonini belgilab berdi. Ushbu bosqichda oliy ta'lim tizimini xalqaro standartlarga moslashtirish, qamrovni kengaytirish va raqamlashtirish 2030 – yilgacha asosiy maqsadlar sifatida belgilangan. Demak, mavjud o'zgarishlar jarayonini bashorat qilishda 2030 yilgacha bo'lgan muddatni e'tiborga olish o'rinli[1].

Bugungi kunda dunyoda ta'limning har tomonlama tez sur'atlarda rivojlanib borishi oliy ta'lim muassasalari transformatsiyasi muhim yo'nalishlardan biri sifatida etirof etilmoqda. YUNESKOning oliy ta'lim kvalifikatsiyalarini tan olish to'g'risidagi Global konvensiyasida oliy ta'lim muassasalarida yetishib chiqayotgan yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash va ularning innovatsion rivojlanishini ta'minlash oliy ta'lim muassasalaridagi transformatsion jarayonlar bilan uzviy bog'liqligi alohida qayd etiladi. Bu o'z navbatida oliy ta'lim muassasalarida ta'lim, fan va ishlab chiqarish integratsiyasi, ta'limdagi innovatsion jarayonlar hamda raqamli texnologiyalarga asoslangan transformatsion jarayonlarni taqazo etmoqda[8].

Tadqiqot metodologiyasi.

Oliy ta'lim transformatsiyasining falsafiy istiqbollarini tadqiq qilishga qaratilgan mazkur maqolada ilmiy tadqiqotning gumanitar fanlar sohasida qo'llaniladigan analiz, sintez, umumlashtirish, taqqoslash, ijtimoiy-falsafiy tahlil kabi metodlaridan foydalanilgan.

Tahlillar va natijalar.

Oliy ta'limni transformatsiyalash har tomonlana rivojlanib borayotgan axborot kommunikatsiya tizimi biz uchun misli ko'rilmagan fan yutuqlariga kirib borish eshigini ochmoqda desak mubolag'a bo'lmaydi. Dunyoning rivojlangan mamlakatlarida oliy ta'lim muassasalarining innovatsion salohiyatini oshirish, ularni zamonaviy ta'lim kampusi sifatidagi ijtimoiy-madaniy mavqeini mustahkamlash, kreativ – ilmiy infrastrukturasini takomillashtirishga qaratilgan tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bundan ko'rinadiki tadqiqot ishlarini ko'lami qay darajada yaxshiligiga qaratilgan munosabat oliy ta'limning yanada mavqeini oshishiga imkon beradi. Zamonaviy oliy ta'lim transformatsiyasiga ta'sir ko'rsatuvchi ob'ektiv va sub'ektiv omillar, ularning rivojlanish tendentsiyalaridan kelib chiqib, quyidagi masalalar haqida bahs yuritish mumkin. Transformatsiyalash natijasida oliy ta'lim tizimi global ta'limning raqobatbardosh tarkibiy qismiga aylanadi va jamiyat hamda davlatning ehtiyojlari uchun zamonaviy kadrlar tayyorlab beradi. Bu ancha optimistik yondashuv bo'lib, uning huquqiy va iqtisodiy asosi zamonaviy oliy ta'limni rivojlantirish konsepsiyasi hisoblanadi.

Konsepsiyadagi bosh masalaning mohiyati – oliy ta'lim bilan qamrovni yanada yuqori pog'onaga olib chiqish bo'lib, ushbu masalani hal etish uchun xususiy oliy ta'lim muassasalarini barpo qilish, nodavlat oliy ta'lim muassasalari tarmog'ini kengaytirish va mavjud oliygohlardagi qabul kvotalarini ko'paytirishdan iborat. Xususan, 2019-yili yurtimizda 102 ta oliy ta'lim muassasasi mavjud bo'lgan bo'lsa, bugungi kunda ularning soni 203 taga yetdi. Davlat universitetlari soni 85 tadan 102 tagacha oshdi, nodavlat oliy ta'lim muassasalari esa 17 tadan 71 taga ko'paydi. Shuningdek, yurtimizda 30 ta xalqaro universitet faoliyat olib bormoqda. Natijada, OTMlar soni 2019-yiliga nisbatan qariyb 101 taga ko'paydi[6].

Oliy ta'lim muassasalaridagi mavjud o'rinlarning kengaytirilishi va bitiruvchilar sonining oshishi iqtisodiyotning real sektoridagi talab bilan muvofiq bo'lishi kerak. O'zbekistonda mehnat bozori, oliy ta'limdagi raqobat va kasbiy oriyentatsiya masalalari bilan ilmiy asosda shug'ullanadigan tahlil yoki

konsalting markazi yo'qligini qayt etish mumkin. Ommaviy axborot vositalarida ushbu masalalar faqatgina rasmiy tomonning qarashidan kelib chiqib yoritilishiga e'tibor qaratilsa, bu borada yechimini topmagan muayyan masalalar ham mavjudligiga guvoh bo'lamiz.

Oliy ta'lim transformatsiyasiga ta'sir ko'rsatuvchi obyektiv omillarning asosini tashkil qiluvchi davlat resurslarining oliy ta'lim transformatsiyasiga jalb qilinishi, fuqarolarning oliy ma'lumotli bo'lishga intilishi va buning uchun resurslarni sarflashga tayyorgarligi tashkil qiladi. Mazkur omillarsiz zamonaviy oliy ta'lim transformatsiyasi amalga oshishi mumkin emas.

Oliy ta'lim transformatsiyasiga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy omillar quyidagilardan iborat:

Davlat resurslarining jalb qilinishi: Hududlar ehtiyojidan kelib chiqqan holda davlat tomonidan oliy ta'lim muassasalarini modernizatsiya qilish, xalqaro moliya institutlari grantlarini jalb etish va maqsadli qabul parametrlarini belgilash.

Aholining intilishi va resurs sarflashi: Fuqarolarning oliy ma'lumotli bo'lishga bo'lgan yuqori talabi va ta'lim sifatiga investitsiya kiritishga tayyorligi, bu esa ta'lim bozori tarkibini shakllantiradi.

Ta'lim tizimi transformatsiyasi: Fundamental asoslarni yaxshilash, intellektual salohiyatni oshirish va mehnat bozoriga mos kadrlar tayyorlash orqali sifatni yaxshilash. Demak, aytish mumkinki ushbu omillar ta'limni transformatsiyalashda asosiy o'rin tutib, rivojlanishiga katta hissa qo'shadi.

Qayd etish mumkinki, dunyoning turli mintaqalarida oliy ta'limga nisbatan turlicha munosabatlar shakllangan. Eng rivojlangan davlatlarda ham, eng qoloq davlatlarda ham oliy ta'limga ma'lum bir ma'noda skeptik [2] yondashuv mavjud. Dunyoning eng rivojlangan davlatlarida oliy ma'lumotli bo'lmasa ham farovon hayot kechirishga bo'lgan ishonch mavjud, juda qoloq davlatlarda oliy ma'lumot haqidagi diplom bilan ham hayot kechira olmaslikka ishonch bor. Mustaqil davlatlar hamdo'stligi hududidagi davlatlarda uzoq yillar davomida oliy ta'lim davlatning monopoliyasi bo'lib kelganligi ma'lum. Mamlakatimiz

tarixida SSSR tuzumi davrida jamiyatning oliy ma'lumotli har bir a'zosi shubhasiz ravishda ijtimoiy va boshqa ne'matlardan foydalanib kelganligi sababli oliy ma'lumot olishga bo'lgan qiziqish juda kuchli bo'lgan edi. Aytish mumkinki, oliy ma'lumotli har bis shaxs jamiyatda o'zining mustaqil o'rniga va shaxsiy fikrining egasi bo'lishiga imkon yaratadi. Ushbu masala O'zbekiston misolida kuzatilsa, mustaqillik yillarida oliy ta'limdagi kvotalar aholi soniga nisbatan sekinlik bilan ko'payganini ko'rishimiz mumkin. To'g'ri, mustaqillikning ilk yillarida oliygohlarda o'qishga bo'lgan qiziqish pasaygan. Bu o'sha davrda byudjet tashkilotlari oldidagi ish haqi bilan bog'liq majburiyatlarning bajarilmay qolgani va boshqa iqtisodiy omillar bilan bog'liq bo'lganligini taxmin qilish mumkin. Keyingi yillarda byudjet tashkilotlaridagi ish haqining muttasil oshib borishi natijasida oliy ta'limga bo'lgan qiziqish yanada ortdi. Yuqoridagilardan xulosa qilib aytish mumkinki, keyingi o'n yillikda oliy ta'limga davlatning va jamiyatning e'tibori pasaymaganligini ko'rish mumkin. Bundan ko'rinadiki, yosh avlodni tarbiyalashda, oldimizga qo'yilgan maqsaddan og'ishmagan holda ish olib borishimiz har qachongidan ko'ra muhim masala hisoblanadi.

Shu o'rinda, aholining Oliy ma'lumotli bo'lishdan yagona maqsad jamiyat rivojida o'z hissasini qo'shish, munosib ish o'rniga ega bo'lish sanaladi. Bu dialektik bog'liqlik bo'lib, oliy ta'lim muassasalari jamiyat va davlat manfaatlari uchun zarur bo'lgan kadrlar tayyorlab, ertangi jamiyatimiz rivoji uchun har tomonlama yetuk mutaxxassis tayyorlash orqali oldimizga qo'ygan aniq maqsadlarga erisha olamiz. Jamiyatda munosib o'rnini topgan hodimlarning muvaffaqiyati har bir abituriyentlar uchun o'rnak bo'ladi va ularda oliy ta'limga bo'lgan qiziqish kuchayib boraveradi. Bu o'rinda yana jamiyat a'zolarining talab va istaklarini korrektsiya qilib turadigan konsalting va tahlil markazlariga ehtiyoj tug'iladi. Chunki talabgorlar soni ko'paygan sari sifatsiz xizmat (tovar) olish ehtimoli ham ko'payadi. Bir-birining inertsiyasi hisobiga ommaviy ravishda, aniq bir maqsad va vazifasiz, stixiyali tarzda oliy ma'lumotli bo'lishga intilish davlat va jamiyat resurslarining isrof bo'lishiga olib keladi, xolos.

So‘nggi vaqtlarda ijtimoiy gumanitar yo‘nalishda, xususan, pedagogika, boshlang‘ich ta‘lim, psixologiya, filologiya, tarix va boshqa yo‘nalishlarga o‘qishga topshirib kirayotgan abituriyentlar soni ko‘paygan. Lekin, na oliy ta‘lim vazirligi, na maktabgacha ta‘lim vazirligi bu borada bitiruvchilarni ishga joylashtirish bilan bog‘liq masalalarni obyektiv tahlil qilib jamoatchilik e‘tiboriga havola etgani yo‘q. Bu yo‘nalishda xulosa qilish uchun jarayonni chuqur ilmiy o‘rganish zarur.

Shaxslarning oliy ta‘lim olishida albatta xavfsizlik masalasi ta‘minlangan bo‘lishi zarur. Ya‘ni, shartnoma, shartnoma bo‘lmaganda o‘qishning kundalik xarajatlarini qoplash uchun iqtisodiyot barqaror ishlab turishi kerak bo‘ladi. Transformatsiyaga ta‘sir ko‘rsatuvchi yana bir omil iqtisodiy barqarorlik masalasidir. Bugungi kunda yoshlarimiz orasida keng yoyilib borayotgan sun‘iy intellekt va IT sohalari keng yoyilib bormoqda. Buning natijasida yoshlarimizni ongida so‘nggi axborot vositalaridan to‘g‘ri foydalanish ko‘nikmasi shakllanmoqda. Bu esa zamonaviy oliy ta‘lim tizimida kutilayotgan natijalarga tezda erishish imkonini keltirib chiqarmoqda. Shunday ekan, Prezident Sh.M.Mirziyoyevning Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasida “...mehnat bozoriga yiliga 300 ming nafar oliy ma‘lumotli kadrlar kirib kelmoqda. Endi oliygoh bitiruvchilari va ish beruvchilar o‘rtasida ko‘prik bo‘lib xizmat qiladigan raqamli ekotizm eratiladi. Unda talabalarning akademik ko‘rsatkichlari va korxonalardagi bo‘sh ish o‘rin o‘rtasidagi ma‘lumotlar onlayn tarzda ko‘rinib turadi. Ushbu ekotizm bitiruvchi kurs talabalari uchun o‘ziga mos ish topish, korxonalarga esa malakali kadrlarni jalb qilish imkoniyati tug‘iladi”[2] .

Bundan ko‘rinib turibdiki bugungi kunda oliy ta‘lim talabalari uchun o‘z kasbining yetuk mutaxxassisi bo‘lsagina jamiyatda munosib o‘ringa ega bo‘lish imkoniyati paydo bo‘ladi. Zero, “...bugungi kun uchun zarur bo‘lgan yangi avlodni ilm fan va o‘z ixtisosligi sohasini puxta egallaganligi” [8] davlat rahbari tomonidan e‘tirof etilganligi bejizga emas. Shuning uchun zamonaviy oliy ta‘lim

tizimini tubdan transformatsiya qilish orqali kelajak kasblarini shakllantirmog‘imiz zarurdir.

Xulosa.

Yuqoridagilardan xulosa qilib aytish mumkinki, oliy ta’lim tizimini transformatsiya jarayonida malakali kadrlar ko‘lamini yanada kengaytirish, ularni ish o‘rni bilan ta’minlash, yangi ish o‘rnini ko‘paytirish, turli yo‘nalish mutaxassisliklari bo‘yicha ishga joylashtirish bilan bog‘liq masalalarni obyektiv tahlilini o‘rganish mamlakat rivoji uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 10-oktyabrdagi PF-5847-son Farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. 26.12.2025.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2909-sonli qarori. 2017-yil, 20-aprel.
4. Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz (1-qism). – Toshkent: O‘zbekiston, 2018. – 592 b.
5. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqamiz bilan birga quramiz. – Toshkent. O‘zbekiston, 2016. – 476 b.
6. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021. – 464 b.
7. Karimov I. “Ilm-fan imkoniyatlaridan to‘laroq foydalanalaylik”, O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – Toshkent: O‘zbekiston, 2012. – 72 b.
8. YUNESKOning oliy ta’lim kvalifikatsiyalarini tan olish to‘g‘risidagi Global konvensiyasi. 2025yil, 4-noyabr.